

“Moddiy-ma’naviy meros va umumbashariy qadriyatlar” mavzusida Respublika ilmiy-amaliy anjumani o‘tkazildi

2021-yil 25-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O‘zbekiston tarixi davlat muzeyida “Moddiy-ma’naviy meros va umumbashariy qadriyatlar” mavzusida an’anaviy Respublika ilmiy-amaliy anjumani bo‘lib o‘tdi.



Anjumanda muzeyshunoslik, tarix, arxeologiya, etnografiya, san’atshunoslik va pedagogika kabi turli yo’nalishlarda izlanishlar olib borayotgan yosh olimlar, ilmiy xodimlar, mutaxassislar ilmiy ma’ruzalari bilan ishtirok etdi.

Anjuman ishida nomoddiy madaniy meros bo‘lgan og‘zaki an’analar va ifoda shakllari, til, ijro san’ati, urf-odatlar, marosimlar, bayramlar bo‘yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot natijalari, yoshlarni muzey kolleksiyalarida saqlanayotgan madaniy boyliklarni asrash, tiklash va targ‘ib etish, ilmiy muomalaga kiritishda faol ishtirok etishga jalb qilish, madaniy-ma’naviy merosni saqlash, tadqiq etish va ro‘yxatga kiritish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga bag‘ishlangan mavzularda ma’ruzalar tinglandi va muhokama qilindi.